



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 895 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 78 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 817 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 12 869,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyuliga nisbatan 25,9 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 836,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 171,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 12 033,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 123,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 676,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 132,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 674 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 640 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 794,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 18,1 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 7 297,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 93,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Shovot (36,1 m.), Urganch (3,4 m.), Qo'shko'pir (2,2 m.) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 690 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 682 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 136,1 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yilning mos davriga nisbatan 15,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 84,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: (9090)	Ijrochi: R.Buxarbayev Tel: (9040) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	--	--